

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi rektori
E.A.Xoshimov
« » **2023 yil**



70410501 – BANK ISHI VA AUDIT
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA KIRISH BO‘YICHA
MAXSUS FANDAN SINOVLAR

DASTURI

Toshkent – 2023-yil

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 yil 28 yanvardagi 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmoni, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-60-sonli, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son (2020 yil 31 dekabr) Qarorlarining asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Bank ishi va audit” dasturu talabalarga pul muomalasi va bank ishi bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, pul nazariyalari, pul massasi va pul agregatlari, kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari hamda kredit bo‘yicha foiz stavkalariga ta’sir qiluvchi omillar, banklarning kelib chiqishi va bank tizimi, tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari, tijorat banklari, ularning funksiyalari va operatsiyalari, xalqaro moliya institutlari valuta munosabatlari va valuta tizimi, valuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar, valuta bozori va valuta operatsiyalari, bank buxgalteriya hisibi, bank auditi, bank miliyaviy natijalar tahlili ahamiyatini ochib berish tartibi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70412203 – “Bank ishi va audit” mutaxassisligiga o‘qishga qabul qilinayotgan tinglovichlar quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

I. FANNING ASOSIY MAVZULARI

1-MAVZU. PUL NAZARIYALARI

Pulning metallik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari. Pulning metallilik nazariyasining asoschilari va ularning qarashlari. Ilk merkantilistlar va ularning nazariy qarashlari. Faol “pul balansi” tushunchasi. So‘nggi merkantilistlar va ularning nazariy qarashlari. “Umumiy savdo balansi” tushunchasi. XIX va XX asrlarda pulning metallilik nazariyasini rivojlantirishga bo‘lgan urinishlar. Pulning metallilik nazariyasiga nisbatan tanqidiy qarashlar. Pulning nominallik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari va asosiy qoidalari. Pulning nominallik nazariyasini XX asrda rivojlanishi. Pulning miqdoriylik nazariyasi. Pulning aylanish tezligi va almashuv tenglamasi. Pulning miqdoriylik nazariyasida pullarga bo‘lgan talab talqini. J.M.Keynsning “likvidlikni afzal ko‘rish” nazariyasi. Pullarga bo‘lgan talab omillari: tranzaksion omil, ehtiyotkorlik omili, spekulyativ omil. J.M.Keynes nazariyasini rivojlantirilishi. M.Fridmenning zamonaviy miqdoriylik nazariyasi. M.Fridmen va J.M.Keynes nazariyalari o‘rtasidagi farqlar.

2-MAVZU. PUL MASSASI VA PUL AGREGATLARI

Pul massasi, uning mohiyati va tarkibi. Pul massasini miqdoriy o‘lchash. Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini aniqlash. Pulning aylanish tezligi. Pul multiplikatori. Monetazatsiya koeffitsienti. Pul agregatlari va ularning tarkibi. Federal rezerv tizimining pul agregatlari. Yevropa davlatlarida pul agregatlari. Rossiya Federatsiyasida pul agregatlari. O‘zbekiston Respublikasida pul agregatlari va ularning tarkibi.

3-MAVZU. PUL TIZIMI VA UNING ELEMENTLARI, PUL ISLOHOTLARI

Pul tizimi va uning mazmuni. Pul tizimi shakllari va ularning evolyutsiyasi: bimetallizm, monometallizm. Oltin almashinmaydigan kredit pullar tizimi. Pul tizimi elementlari. Ba’zi xorijiy davlatlar pul tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi barqarorligini ta’minlash yo‘llari.

Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi. Pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlari. Pul islohotlari turlari va ularni amalga oshirish usullari. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibi. Nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

4-MAVZU. KREDITNING ZARURLIGI, FUNKSIYALARI, TURLARI VA SHAKLLARI HAMDA KREDIT BO‘YICHA FOIZ STAVKALAR VA ULARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Kredit va uning mazmuni. Kreditning zarurligi. Fondlar aylanishi va kreditning zarurligi. Kredit munosabatlari va ularning turlari. Kreditning tamoyillari. Kreditning obyektlari va subyektlari. Kreditning funksiyalari. Kredit qonunlari. Kreditning turlari. Kreditning shakllari. Kreditlashning me’yoriy-huquqiy asoslari. Tarmoqlarni kreditlashning xususiyatlari. Iqtisodiyotda kreditning roli.

Kreditning to'lovlilik tamoyili. Foiz stavkalar va ularni o'lchash. Kreditning bahosi tushunchasi. Nominal foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Oddiy foizlar. Murakkab foizlar. Kredit bozori va uning instrumentlari. Pul taklifi. Fisher effekti. Foiz stavkalari bo'yicha nazariyalar. Kredit foiziga ta'sir qiluvchi omillar.

5-MAVZU. BANKLARNING KELIB CHIQISHI VA BANK TIZIMI

Bank, banklarning paydo bo'lishi, maqsadi va vazifalari. Dastlabki banklarning paydo bo'lishi va ularning operatsiyalari. Italiyada banklarning valuta almashtirish operatsiyalarini amalga oshirish zaruriyati tufayli yuzaga kelishi. Qadimgi Gretsiyada bank ishi. Qadimgi Rimda bank ishi. O'rta yer dengizi havzasidagi Yevropa mamlakatlarida XIV-XV asrlarda bank ishi. XVII-XVIII asrlarda Yevropada bank ishi. AQSh bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Emission banklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. AQSh federal zaxira tizimining tashkil etilishi. Shvetsiya Rikts bankining tashkil etilishi. Angliya Markaziy bankining yuzaga kelishi. Yaponiya Markaziy bankining tashkil etilishi. Yevropa Markaziy bankining yuzaga kelishi. Tijorat banklarining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Banklarning funksiyalari. Banklarning operatsiyalari. Bank tizimi va uning turlari. Kredit tizimi va uning tarkibi. Yevropa davlatlari, AQSh, Yaponiya va boshqa davlatlar bank tizimi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Banklarning turlari. Moliyaviy innovatsiyalar va bank industriyasini rivojlanishi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning shakllanishi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va banklar faoliyatining huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining tarkibi.

6-MAVZU. NOBANK MOLIYA-KREDIT MUASSASALARI

Nobank moliya-kredit muassasalarining zarurligi. Nobank moliya-kredit muassasalarining aktiv va passiv operatsiyalari. Kredit uyushmalari. Lombardlar, ssuda-jamg'arma assosiatlari. O'zaro jamg'arma banklari. Mikromoliyaviy tashkilotlar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, moliya kompaniyalari. O'zaro fondlar. Xorijiy davlatlarda nobank moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasida nobank kredit tashkilotlari ular faoliyatining huquqiy-iqtisodiy asoslari.

7-MAVZU. VALUTA KURSI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Valuta kursining mazmuni va ahamiyati. Valuta kursi rejimlari. Valuta kursining turlari. Valuta kursi kotirovkasi. Valuta pariteti va uning ahamiyati. Valuta kursi o'zgarishining jahon valuta bozoridagi operatsiyalarga ta'siri. Milliy valuta kursi barqarorligini ta'minlash yo'llari.

8-MAVZU. VALUTA BOZORI VA VALUTA OPERATSIYALARI

Valuta bozori va uning turlari. Valuta bozorining tarkibiy tuzilishi. Valuta bozori ishtirokchilari va ularning faoliyati. Birja va birjadan tashqari valuta bozori. Valuta pozitsiyasi va uning turlari. Valuta pozitsiyasini boshqarish. Birja va

birjadan tashqari valuta bozorlarida valuta operatsiyalari va ularning asosiy turlari. Spot valuta operatsiyasi. Forward valuta operatsiyalari, turlari va ularning o'ziga xos hususiyatlari. Futures valuta operatsiyalari. Valutaviy swap operatsiyalari, ularning mohiyati va amalga oshirilishi. Valuta risklarini xedjerlash tartibi. Valuta arbitrajleri va ularni o'tkazish. Valuta bozorini va valuta operatsiyasini o'tkaziy bilan bog'liq muammolar.

9-MAVZU. TIJORAT BANKLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy asoslari. Banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziyalash tartibi. Tijorat banklarini ochish uchun ustav fondining minimal miqdori va uning ahamiyati. Ustav fondini shakllantirish manbalari. Tijorat banklari faoliyatini qayta tashkil etish shakllari. Banklarga vasiylik tayinlash. Tijorat banklarini tugatish tartibi.

10-MAVZU: TIJORAT BANKLARI PASSIVLARI TARKIBI VA ULARNI JOYLASHISHI

Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi. Banklarning passiv operatsiyalari, ularning turlari. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining balansda joylashishi. Tijorat banking kapitali uning tarkibi va yetarliligiga qo'yilgan talablar. Bank kapitali va uning samaradorligini oshirish yo'llari. Bank kapitali yetarliligi bo'yicha xalqaro talablar. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari. Tijorat banklarining depozit va nodepozit operatsiyalarining tavsifi. Tijorat banklarining talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha operatsiyalarining mohiyati. Aholi pul jamg'armalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Aholi omonatlarini kafolatlashning huquqiy asoslari. Tijorat banklarining kredit potentsiali va uning ahamiyati. Banklararo kredit resurslari, uning ahamiyati va uni o'tkazish tartibi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi. Tijorat banklarining resurslari va ularni boshqarish masalalari.

11-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING AKTIVLARI TARKIBI VA ULARNI JOYLASHISHI

Bank aktivlari tarkibi va ularni balansda joylashishi. Bank aktivlarining sifati darajasi va bank aktivlarining diversifikatsiyasi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari. Tijorat banklarining aktivlarini boshqarish usullari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari aktivlarini boshqarish strategiyasi. Tijorat banklarida majburiy zaxiralarni tashkil etish tartibi va uning zaruriyati. Emissiya kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibi.

12-MAVZU. BANKLARDA BUFGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILINISHI

Banklarda buxgalteriya hisobining mazmuni va uni tashkil etishning ahamiyati. Bank hisob-operatsion apparatining tuzilishi; buxgalteriya xodimining huquq va majburiyatlari, banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari buxgalteriya hisobining hisob varaqlar rejalari va ularning tavsifi; bank balansi va uning tuzilishi.

13-MAVZU. NAQD PULSIZ HISOB – KITOB OPERATSIYALARI HISOBI

Naqd pulsiz hisob-kitoblar mohiyati va ularni tashkil etish asoslari. To‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar, to‘lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar; akkreditivlar bilan hisob-kitoblar; inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar, bank plastik kartochkalari bilan hisob-kitoblar, memoreal orderlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, ularni rasmiylashtirilishi va hisobini yuritish. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish istiqbollari.

14-MAVZU. BANKLARARO HISOB-KITOBLAR HISOBI

Banklararo hisob-kitoblarning mazmuni va ularning tashkil etilishi. Banklarning vakillik hisobvaraqlari ochilishi va yuritilishi. Elektron to‘lov tizimi. Banklararo hisob-kitoblarning elektron to‘lov tizimi orqali tashkil etilishi va hisobga olinishi. Hisob markazlari ishining tashkil etilishi. Yagona vakillik hisob varag‘ining mohiyati, ahamiyati va yuritilishi.

15-MAVZU. BANKLARDA KASSA OPERATSIYALARI HISOBI

Banklarda kassa operatsiyalarini tashkil qilish, bank kassalarining turlari. Kirim kassa operatsiyalari bo‘yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorati. Chiqim kassa operatsiyalari bo‘yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorati. Kechki kassalarning faoliyati. Pul tushumlarini inkassatsiya qilish tartibi va hisobi. Zaxiradagi naqd pullarni hisobga olish. Valuta ayirboshlash shaxobchalarida naqd pullar hisobini yuritish.

16-MAVZU. BANKLARDA KREDIT OPERATSIYALARINING BUXGALTERIYA HISOBI

Banklarda kredit operatsiyalari hisobining tashkil etilishi. Kredit operatsiyalari bo‘yicha sintetik va analitik hisobning yuritilishi. Ssuda hisob varaqlarini ochish tartibi. Kredit kredit berish va qaytarish operatsiyalarining hisobi. Muddatli va muddati o‘tgan ssudalar bo‘yicha foizlar hisoblash va undirish tartibi.

17-MAVZU. BANK DAROMADLARI VA XARAJATLARI HISOBI. BANKLARDA SOLIQLAR HISOBI

Bank daromadlari va ularning tarkibi. Bankning foizli va foizsiz daromadlari, ularning hisobi. Bank xarajatlari, ularning tarkibi, bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarini hisobga olish. Bank faoliyati moliyaviy natijalarining hisobi.

Bankning byudjet va byudjetdan tashqari to‘lovlari turlari va ularni hisoblash. Banklarda daromad solig‘i, qo‘shimcha qiymat solig‘i, ekologiya solig‘i, mol-mulk solig‘ini hisoblash va hisobini yuritish tartibi. Byudjetdan tashqari to‘lovlar bo‘yicha operatsiyalarni bank buxgalteriya hisobida aks ettirilishi.

18-MAVZU. BANK AUDITINING TASHKIL QILINISHI VA TURLARI

Banklarda auditni tashkil etish masalalari. Auditning turlari. Audit o'tkazishning printsiplari. Auditga hamroh bo'ladigan xizmat turlari. Auditorning etikasi. Auditorning huquq va majburiyatlari. Auditorlarning mustaqilligi. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. Bank auditining predmeti va metodi. Moliyaviy hisobot ma'lumotidan foydalanuvchilar. Auditning maqsadi va vazifalari. Respublikada bank auditini rivojlanish bosqichlari. Bank auditiga doir qo'shimcha vazifalar va talablar.

19-MAVZU. NAQD PUL, KASSA VA HISOB-KITOB OPERATSIYALARI AUDITI

Bank kassa operatsiyalarini normativlar bilan tartibga solinishi. Banklarda kassa va kassa operatsiyalari auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruvi manbalari. Tashkilotlardan bank kassasiga naqd pulni qabul qilish operatsiyalarini tekshirish. Tashkilotlarga naqd pul birliklarini berish tartibini tekshirish. Bank operatsion kassasi xulosasini va kassa hujjatlarini saqlash tartibini tekshirish. Kassa operatsiyasini tekshirish bo'yicha bank ichki nazorati materiallarini tahlil qilish. Hisob-kitob operatsiyalarini auditorlik tekshiruvi. Tashkilotlarni hisob raqamini ochilishi va yuritilishi tartibiga rioya etilganligini tekshirish. Mijozning hisob raqami bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirilishini tekshirish. Banklararo hisob-kitob operatsiyalarni auditdan o'tkazish.

20 -MAVZU. KREDIT OPERATSIYALARINI RASMIYLASHTIRISH VA HISOBGA OLIISH AUDITI (MUAMMOLI KREDITLARNING AUDITI)

Kreditlash operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruvi manbalari. Har xil turdagi kreditlarni berilishi, qaytarilishi va hisobotlarda ularni aks ettirilishi tartibi auditi. Bir martalik ssudalarni auditi. Berilgan ssudalarni sifati va ishonchli ta'minotini baholash. Banklararo berilgan kreditlarni auditi. Joylashtirilgan pul mablag'lariga hisoblangan va chegirib olingan foizlarni va ularni hisobini to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish. Kredit riskini baholash bo'yicha bankda qo'llaniladigan tartibga rioya qilib, ssudalar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlar uchun rezerv shakllantirishni to'g'riligi va to'liqligini tekshirish. Bank kredit siyosatini va kredit risklarini boshqarish sifatini baholash.

21-MAVZU. TIJORAT BANKLARIDA ASOSIY VOSITALAR, KAM BAHOLI VA TEZ ESKIRUVCHI BUYUMLARNING AUDITI

Banklarda asosiy vositalar auditining maqsadi. Asosiy vositalarning hisobini yuritilishi, baholanishi va qayta baholanishini tekshirish. Kam baholi aktivlar, tez eskiruvchi buyumlarni tekshirish. Kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarni holati, saqlanishi va bank balansidan chiqarilishini tekshirish. Bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari tekshiruvi bo'yicha auditorlik xulosasi va uning muhokamasi.

II. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Jumayev N., Ziyaev M., Berdiyarov B. va boshqalar. O‘zbekistonda milliy valuta tizimini rivojlantirish: muammolari va yechimlari. Monografiya.-T.: “Moliya”, 2011 y. - 184 b.
2. Bobaqulov T.I., Abdullayev U.A. “Xalqaro valuta-kredit munosabatlari” Darslik. - Moliya.- Toshkent, 2019yil , 226 b.
3. Ataniyazov. J, Alimardonov D. Xalqaro moliya munosabatlari. -T.: O‘zbekiston Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 432 bet.
4. Умаров З.А., Муругова И.А., Бабаева Г.Я. Бухгалтерский учёт в банках. Учебник - Т.: «Иқтисод-Молия», 2019 . - 576 с.
5. Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Marpatov M.D.,– Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari / darslik – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019 – 500 b.
6. Yadgarova M., Qurbonov R. Bank auditi. Darslik. –T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2019 y.
7. Tuychiyev A., Qo‘ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 530 b.
8. Tojiev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik.- Toshkent. “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019 yil, 296 b.
9. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2017
10. Frederic S. Mishkin. The economics of money, banking and financial markets. Pearson Education Limited. 2020. 745 pages.

Qo‘shimcha adabiyotlar

11. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: “O‘zbekiston», 2019 y. 5 noyabr. <http://lex.uz/ru/docs/4590452>.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: “O‘zbekiston”, 2019 y. 5 noyabr. <http://lex.uz/pdfs/4581969>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli farmoni. 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – № 6 (766). – 32-b.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.
15. Laurence M. Ball. Money, Banking, and Financial Markets, Pearson Education Limited. 2016.

Axborot manbaalari

16. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining sayti..
17. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
18. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
19. www.stat.uz – O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
20. www.worldbank.org – Jahon banki sayti.
21. www.imf.org – Xalqaro valyuta fondi sayti.
22. www.bis.org – Bazel Qo‘mitasi sayti.